

AHOLINI RO‘YXATGA OLISHNI O‘TKAZISH KERAKMI?

Aholini ro‘yxatga olish shunchaki statistika emas, balki bu mamlakat aholisining ma’lum bir vaqtdagi fotosuratini ko‘rish imkoniyatini beradigan yirik miqyosdagi tadbir hisoblanadi.

Dunyodagi har bir mamlakat, o‘zining aholisi va uning yashash holati bo‘yicha ishonchli ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida, ma’lum bir belgilangan davrlarda aholisini ro‘yxatga olib boradi. Ko‘pchilik mamlakatlarda aholini ro‘yxatga olish har besh yoki o‘n yilda amalga oshiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish bo‘yicha har o‘n yillikda raund e’lon qilinadi va unda a’zo mamlakatlarga o‘z hududlarida kamida bir marta aholini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish tavsiya etiladi. Xususan, 2015- yil 10- iyun sanasida qabul qilingan rezolyutsiyasida a’zo davlatlarga aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish tadbirini 2015-2024- yillar oralig‘ida kamida bir marta o‘tkazish tavsiya etilgan.

Bugungi kunga kelib, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarining aksariyatida aholini ro‘yxatga olish tadbiri o‘tkazildi, faqat Ukraina, Moldova va O‘zbekiston Respublikalarida hali bu tadbir o‘tkazilmadi.

Aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olish 2020- yil raundi doirasida MDH davlatlarining ishtiroki

T/r	Mamlakat nomi	O‘tkazilgan sanasi
1	Ozarbayjon Respublikasi	2019- yil 1-10- oktabr
2	Belarus Respublikasi	2019- yil 4-30- oktabr
3	Tojikiston Respublikasi	2020- yil 1-15- oktabr
4	Qozog‘iston Respublikasi	2021- yil 1- sentabr, 30- oktabr
5	Rossiya Federatsiyasi	2021- yil 15- oktabr, 14- noyabr
6	Armaniston Respublikasi	2022- yil 13-22- oktabr
7	Qirg‘iz Respublikasi	2022- yil 25- mart, 3- aprel
8	Turkmaniston Respublikasi	2022 - yil 17-27- dekabr


Ushbu raund doirasida aholini ro‘yxatga olish tadbirining sanalari ko‘pgina davlatlarda koronavirus pandemiyasi (COVID-19) tufayli va boshqa sabablarga ko‘ra bir necha marotaba boshqa sanalarga ko‘chirildi.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi tufayli ko‘pgina mamlakatlar aholini ro‘yxatga olish tadbiri doirasida ro‘yxatga olish va so‘rov o‘tkazish usullarini ham o‘zgartirishdi.

2000 va 2010- yillar raundida MDH mamlakatlarining barcha a‘zolari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi hududlaridagi ko‘pgina mamlakatlar aholini ro‘yxatga olishda faqatgina an’anaviy usuldan, ya’ni aholi bilan yuzma-yuz so‘rov o‘tkazish usulidan foydalanishgan.

Aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olishning so‘nggi 2020- yil raundida esa ko‘pgina mamlakatlar aralash usuldan foydalanishdi. Masalan, MDH davlatlari orasida Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi, BMT YEIK hududlarida esa 13 ta mamlakat shular jumlasidandir. Ushbu mamlakatlar aholini ro‘yxatga olishda an’anaviy usul bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan, internet tarmog‘idan, planshet va boshqa mobil qurilmalardan keng foydalanishdi.

Aholini ro‘yxatga olish usullari



Shu bilan birga, BMT YEIKning 16 ta mamlakatlari mavjud registr ma'lumotlaridan va tanlanma kuzatuvlardan foydalangan holda aholini ro'yxatga olishgan.

Bunday ko'rinishdagi zamonaviy texnologiyalardan hamda noan'anaviy usullardan keng foydalanish respondentlar hamda ro'yxatga oluvchilarga yuklamaning kamayishiga, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash hamda yakuniy ma'lumotlarni e'lon qilish jarayonlarini tezlashtirishga, yakuniy ma'lumotlar sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish 2020- yil raundi doirasida MDH mamlakatlari hududidagi jami aholining 74 foizi ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan ro'yxatga olingan bo'lsa, 16 foizi internet tarmog'i orqali o'zlari ro'yxatdan o'tgan hamda qolgan 10 foiz aholining ma'lumotlari turli ma'muriy manbalardan olingan.

Belarus Respublikasida jami ro'yxatga olingan shaxslarning 76 foizi ro'yxatga olish xodimlari tomonidan planshet qurilmalari yordamida so'rov o'tkazish usulida ro'yxatga olingan va aholining 22 foizi internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan. Qolgan 2 foiz aholi ro'yxatga olishda ishtirok etishdan bosh tortgan, ular to'g'risidagi ma'lumotlar ma'muriy manbalardan olingan.

Ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Belarus Respublikasi aholisi soni 9,4 million kishi bo'lib, shundan: 4,3 million kishi erkaklar, 5,1 million kishi ayollarni tashkil etgan. Aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra jami aholining 77,7 foizi shahar joylarda, 22,3 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi.

Rossiya Federatsiyasida ham aholini ro'yxatga olish elektron shaklda o'tkazilgan. Aholining 18 foizi internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, qolgan qismi ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan aholi o'rtasida so'rov o'tkazish orqali planshet qurilmalari yordamida mahalliy dasturchilar tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida ro'yxatga olingan.

Aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, 2010- yildan 2021- yilgacha Rossiya aholisi 1,4 foizga o'sgan va 147,2 million kishini tashkil etib, uning 46,5 foizini erkaklar va 53,5 foizini ayollar tashkil etgan. Ro'yxatga olish natijalari

Rossiyada urbanizatsiya jarayonlari davom etayotganini, mamlakat aholisining 74,8 foizi shaharlarda yashashini ko'rsatgan.

Qozog'iston Respublikasida aholini ro'yxatga olish raqamli shaklda amalga oshirilgan bo'lib, respondentlarning 40 foizi savolnomalarni internet tarmog'i orqali mustaqil ravishda to'ldirishgan, 60 foizi esa planshet qurilmalari yordamida so'rov o'tkazish usuli orqali ro'yxatga olingan. Bu jarayonda respondentlarning to'liq ismi, jinsi va tug'ilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar ma'muriy manbalardan to'ldirilgan.

Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2009- yildan buyon Qozog'iston aholisi 20 foizga o'sgan. 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, respublika aholisi soni 19,2 million kishini tashkil etgan. Shahar aholisining ulushi o'sishda davom etgan bo'lib, 56,1 foizdan 61,2 foizgacha o'sgan. Qishloq aholisi esa 43,9 foizdan 38,8 foizga kamaygan. Qozog'iston Respublikasida ayollar soni, avvalgidek, erkaklar sonidan ustun bo'lgan.

MDH mintaqasidagi aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish 2020- yil raundini avvalgi raundlarga nisbatan burilish nuqtasi sifatida quyidagilarni alohida e'tirof etish lozim:

- aholining internet tarmog'i orqali savolnomalarni mustaqil ravishda to'ldirish imkoniyatidan faol ravishda foydalanganligi;

- aholini ro'yxatga olishning qog'oz shakllaridan deyarli butunlay voz kechish va aholi o'rtasida so'rov o'tkazishda planshet qurilmalaridan faol foydalanilganligi;

- aholini ro'yxatga olishning an'anaviy usuli bilan birgalikda ma'muriy ma'lumotlardan, ya'ni aholi registrlaridan foydalanish aholini ro'yxatga olish modelini yanada murakkablashganligi;

- respondentlarning javoblarini qayd etish uchun texnik vosita sifatida oldindan o'rnatilgan mobil ilovaga ega ro'yxatga oluvchilarning shaxsiy telefonlaridan foydalanilganligi.

Shuningdek, dunyoning yetakchi davlatlarida o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasining

yettinchi milliy aholini ro'yxat olish tadbiri 2020- yil 1- noyabrdan, 10- dekabrgacha o'tkazilgan. Ushbu ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish uchun 7 millionga yaqin ro'yxatga oluvchi xodimlar jalb qilingan. 2020- yilgi Xitoy aholini ro'yxatga olish tadbiri Xitoyda yashovchi barcha Xitoy fuqarolarini, shuningdek, vaqtinchalik vizalar bilan chet elda yashayotganlarni qamrab olgan.

Aholini ro'yxatga olishning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ro'yxatga olish jarayonlariga to'liq axborot texnologiyalari joriy qilindi. Ro'yxatga oluvchilar ma'lumotlarni real vaqt rejimida elektron qurilmalar orqali uzatganliklari, ma'lumotlarni yig'ish jarayoni to'liq raqamli amalga oshirilganligini anglatadi. Respondentlarga o'zlari haqidagi shaxsga doir ma'lumotlarni internet tarmog'i orqali yuborish imkoni ham berilgan.

Xitoy aholisi 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 1 milliard 411,7 million kishini tashkil etgan. Bu 2010- yilga nisbatan 5,4 foizga oshganligini ko'rsatadi. Erkaklar soni 723,3 million kishi (jami aholining 51,2 foizi), ayollar soni esa 688,4 million kishini (48,8 foiz) tashkil etgan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida 2020- yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish AQSH hududida o'tkazilgan yigirma to'rtinchi aholini ro'yxatga olish tadbiri bo'lib, bu avvalgi aholini ro'yxatga olish jarayonlarida bo'lgani kabi, qog'oz shaklidagi savolnomalar orqali so'rov o'tkazishdan tashqari, onlayn yoki telefon orqali o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri bo'lgan. Ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, AQSH aholisi 331,4 million kishini tashkil etib, 2010- yilga nisbatan 7,4 foizga o'sgan.

Ta'kidlash kerakki, aholini ro'yxatga olish mamlakat aholisining aniq sonini, aholi tarkibi va uning yashash sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni bilish imkonini beradi. Asosiysi, bu natijalarni turli xil umumlashgan, shaxssizlantirilgan jadvallarda aks ettirish mumkin va ulardan nafaqat butun mamlakat, balki aholining turli toifalari va hududlari bo'yicha ham tahlil qilishda foydalanish mumkin. Bu avvalgi aholini ro'yxatga olishdan keyin o'tgan vaqt davomida ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarishlar dinamikasini baholash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar aholining istiqbolli hisob-kitoblari va yaqin yillardagi mamlakatdagi

ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning asosiy xarakteristikalarini uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022- yil 20- dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatimiz aholisi 36 milliondan oshib, har yili 900 ming yangi avlod kirib kelayotgani ta'kidlangan edi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadrini ulug'lash, aholi daromadlarini oshirish va ularga munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan bir paytda, aholining joriy hisobi bo'yicha mavjud ma'lumotlar aholi soni, yashash sharoiti, ma'lumoti, bandligi, yosh-jins tarkibi, millat tarkibi, respublika hududida aholining joylashuvi va boshqa ijtimoiy-demografik o'ziga xosliklar to'g'risida aniq xulosa va tahlillar qilishga yetarlicha imkoniyat bermayapti.

Mustaqil O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiri hali biror marta o'tkazilmagan bo'lib, mamlakat hududida so'nggi aholini ro'yxatga olish tadbiri 1989- yilda o'tkazilgan.

Shuning uchun ham Prezidentimizning tegishli Farmonlari va Hukumat qarorlariga muvofiq respublikamizda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish ishlari tizimli ravishda davom etmoqda.

Jumladan, respublikamizda aholini ro'yxatga olishni tartibga soluvchi barcha normativ-huquqiy va uslubiy hujjatlar hamda ro'yxatga olish savolnomalari shakllari ishlab chiqildi. Aholini ro'yxatga olishning maxsus veb-sayti (aholi.stat.uz) joriy qilindi, tadbirning logotipi va shiori ("Yangi O'zbekistonning bir qismi bo'li!") tayyorlandi, aholini ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarini shakllantirish imkonini beruvchi "Aholini ro'yxatga olish" axborot tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, respublikamizdagi barcha mahallalarning sxematik xaritalari yangilanib, aholi yashaydigan turar va noturar joylar ro'yxati tuzib chiqildi.

Shuningdek, 2021- yilda Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda

Toshkent shahrining Yashnobod tumanida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Sinov jarayonlarida planshet usulida aholini ro'yxatga olish qog'oz usuliga nisbatan qulayligi, tezkorligi va iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish jarayonlarini internet tarmog'i orqali va planshet qurilmalaridan keng foydalangan holda o'tkazish rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi aholisi va uning farovonligi to'g'risidagi ishonchli ma'lumot uzoq muddatli prognozlar va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadli dasturlarini, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanish milliy maqsadlari indikatorlarini shakllantirish, mehnat resurslari joylashuvi va ulardan foydalanish jarayonlarini o'rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim poydevor hisoblanadi.